



JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TAHDID VA XAVFLARNING SIYOSIY TAHLILI

Haydarov Alisher Usmon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti

alisher.haydarov.1990@mail.ru

+99890 326 28 90

ORCID: 0009-0005-2809-1594

UDK: 355.4(2)7

Annotatsiya: *Maqolada jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi xavf-xatar va tahdidlar, ularning ko'rinishlari, turlari tadqiq qilingan, olimlarning ilmiy tadqiqot izlanishlari, yuridik adabiyotlar hamda qonun hujjatlari xususan chet davlatlarning qonunchiligi tahlili asosida jamoat xavfsizligiga tahdidlar kelib chiqishiga ko'ra tasniflangan. Mintaqada va jahonda hozirgi zamonaviy dunyoda harbiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, hodisa va jarayonlarning dinamikasi Mazkur maqolada favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat hokimiyati organlari faoliyatining umumiy nazariy masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida jamiyat xavfsizligiga tahdidlarning tasniflash, siyosiy qarash va yondoshuvlar orqali jamiyat xavfsizligini ta'minlash sohasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan shaxsning hayotiy muhim manfaatlari jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari sanalgan millatlararo, konfessiyalararo va fuqaroviy totuvlikni ta'minlash kabi masalalar bilan uzviy holda izohlangan.*

Kalit so'zlar: *Jamiyat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat xavf-hatar, tabiiy xavfsizlik, antropogen xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, milliy xavfsizlik konsepsiyasi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются опасности и угрозы, влияющие на безопасность и стабильность общества, их проявления и виды, а также на основе анализа научных исследований, юридической литературы и законодательства, в частности законодательства зарубежных стран, дается классификация угроз общественной безопасности. Проанализирована динамика военной, социально-политической и экономической обстановки, события и процессы в современном мире в регионе и мире. В статье особое внимание уделено общетеоретическим вопросам деятельности органов государственной власти в области обеспечения общественной безопасности в чрезвычайных ситуациях. На основе проведенного анализа разработаны предложения по совершенствованию сферы обеспечения общественной безопасности посредством классификации угроз общественной безопасности, политических взглядов и подходов. Автор рассматривает жизненно важные интересы личности в комплексе с такими вопросами, как обеспечение межэтнического, межконфессионального и гражданского согласия, которые считаются жизненно важными интересами общества.*



Ключевие слова: общественная безопасность, общественный порядок, общественная опасность, природная безопасность, техногенная безопасность, экономическая безопасность, социальная безопасность, информационная безопасность, концепция национальной безопасности.

Annotation: *The article examines the dangers and threats affecting the security and stability of society, their manifestations and types, and classifies threats to public security based on the analysis of scientific research, legal literature and legislation, in particular the legislation of foreign countries. The dynamics of the military, socio-political and economic situation, events and processes in the modern world in the region and the world. This article pays special attention to the general theoretical issues of the activities of state authorities in the field of ensuring public security in emergency situations. Based on the analysis carried out, proposals were developed to improve the field of ensuring public security through the classification of threats to public security, political views and approaches. The author explains the vital interests of the individual in an integral way with issues such as ensuring interethnic, interfaith and civil harmony, which are considered vital interests of society.*

Key Words: *public safety, public order, objects of public safety, subjects of public safety, Constitution, laws, normative legal acts, universally recognized norms of international law.*

KIRISH

Mamlakatimizda 2017-2021 yillar davomida “O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlariga asoslangan Harakatlar strategiyasi”[1] asosida islohotlarning barcha yo‘nalishlarida keng ko‘lamli amaliy ishlar amalga oshirildi. Ushbu yillar davomida barcha sohalardagi qonunchilik asoslari takomillashtirildi. Turli sohalarga doir to‘rt yuzga yaqin qonun va uch mingdan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”[2] qabul qilinib, islohotlarning yettita yo‘nalishiga qaratilgan 100 ta maqsad belgilandi. Mamlakatimizda 2023-yil Yangilangan Konstitutsiya xalqimiz muhokamasidan o‘tib tasdiqlandi. 2023-yil 9-iyul kuni Prezidentlik saylovlari barcha saylov qonunchiligi talablari asosida o‘tib, xalqimizning yana bir karra demokratik, huquqiy islohotlarga hayrihohligini tasdiqladi.

2023-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №158-son Farmoni[3] bilan xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.



Hozirgi zamonaviy dunyoda harbiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, hodisa va jarayonlarning dinamikasi va beqarorligi bilan ajralib turadi. Ayrim mamlakatlarda ro‘y berayotgan tashqi va ichki siyosiy jarayonlar shuni ko‘rsatamoqdaki, zamonaviy sharoitda konstitusiyaviy tuzum barqarorligini, hududiy yaxlitlikni, davlat hokimiyati institutlarini saqlash, jamiyat xavfsizligi va huquq-tartibotini, fuqarolar tinchligini, milliy totuvlikni ta‘minlash, ekstremizm va terrorizmning paydo bo‘lishiga yordam beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, ijtimoiy, millatlararo va diniy nizolarni oldini olish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat xavfsizligi – bu jamiyatning ma‘naviy va moddiy boyliklari, qadriyatlarini saqlanishini, muhofaza qilinishini ta‘minlovchi shart-sharoitlar majmuidir.

Jamiyat xavfsizligi jamoat tashkilotlari, huquqiy meyorlar hamda tegishli shart-sharoitlarning shakllanishini kafolatlovchi taraqqiy topgan ijtimoiy ongning taqozo etadi. Xavfsizlik subyektlari uchligida – inson, jamiyat va davlat hamda ularning manfaatlari tizimida jamiyat xavfsizligi milliy xavfsizlikning nisbatan subyektiv, individual va kollektiv elementi (ijtimoiy guruhlar xavfsizligi) sifatida namoyon bo‘ladi.

Barqarorlik – turg‘unlik, mustahkamlik, o‘zgarmaslik holati bo‘lib davlat siyosatining barqarorligi holatini nazarda tutadi. Barqarorlik ijtimoiy, ma‘naviy jamiyatda hukm surayotgan tinch-totuvlik, birdamlikni asrab-avaylash va mustahkamlashga asoslangan tinch shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, guruh va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik hamda davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik qaror topganini anglatadigan tushuncha hisoblanadi[4].

Ta‘kidlash joizki, xavfsizlikni ta‘minlash huquqiy kategoriya sifatida davlatning xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish, aniqlash, shuningdek, zararsizlantirish bo‘yicha faoliyatining muayyan sohalarini qamrab oladi. Milliy qonunchilikda nafaqat “jamoat xavfsizligi” tushunchasi, balki jamoat xavfsizligiga tahdid tushunchasi va turlari ham mustahkamlanmagan. Bu nafaqat mahalliy olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida, balki xorijiy manbalarda ham ushbu masalalar bo‘yicha bir xil qarashlar mavjud emasligida ifodalanadi.

Xavfsizlikka tahdidlarni tushunish va uning meyoriy mustahkamlanishiga kelsak, “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, harbiy sohada milliy xavfsizlikka tahdid tushunchasi – O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy kuch ishlatishning real imkoniyati bilan tavsiflangan omillar deb izohlangan[5].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida[6] shaxs, jamiyat va davlatning xayotiy muhim manfaatlari, xavfsizlikka tahdidlar to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Ya‘ni hayotiy muhim milliy manfaatlarning tashqi va ichki tahdidlardan kafolatli himoyalanganlik holati O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining mazmunini tashkil etib, uning barqaror rivojlanishi shartidir.

Hayotiy muhim milliy manfaatlar millatning madaniy-tarixiy birlik tariqasida o‘zligini saqlab qolish, milliy qadriyatlarni, ijtimoiy va davlat institutlarini himoya qilish, suverenitetni hamda shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash borasida anglanilgan ehtiyojlaridir.



Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari quyidagilardan iborat:

inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, uning sha’ni va qadr-qimmatini xurmatlash;

shaxsiy va mulkiy xavfsizlikni ta’minlash; shaxsning ma’naviy va intellektual kamol topishini hamda o’zligini namoyon etishini ta’minlash;

insonning kuch-g’ayrati va qobiliyatini mumkin qadar ko’proq oshirish uchun rag’batlantiruvchi samarali bozor mexanizmlarini vujudga keltirish;

hayotiy ehtiyoj minimumini va inson farovonligi oshishini ta’minlash;

inson hayoti va faoliyati uchun, odamlar sog’ligini muhofaza qilish uchun maqbul ekologik shart-sharoitni ta’minlash.

Jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari quyidagilardan iborat:

millatlararo, konfessiyalararo va fuqaroviy totuvlikni ta’minlash;

milliy an’analar hamda millat tabiati va xususiyatlariga monand demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish;

aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini shakllantirish, siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish;

davlat ustidan jamiyat nazoratining samarali mexanizmlarini bunyod etish, jamoat birlashmalari va hukumatga qarashli bo’lmagan tashkilotlar, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun sharoit yaratish;

ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish hamda haqiqiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirish;

millatning ma’naviy tiklanishini va milliy o’zlikni anglashning o’sib borishini ta’minlash;

jamiyatning ma’naviy-axloqiy, madaniy va boshqa demokratik qadriyatlarini himoya qilish;

jamiyatning intellektual, ma’rifiy va madaniy salohiyatini rivojlantirish;

jamiyatning asosi sifatida oilani har taraflama qo’llab-quvvatlash, barqaror ekologik vaziyat yaratish, aholining sog’ligini ta’minlash, jismonan kamol topgan sog’lom avlodni shakllantirish.

Konsepsiyada, Milliy xavfsizlikka taxdid deganda hayotiy muhim milliy manfaatlarga putur yetkazishi mumkin bo’lgan omillar va shart-sharoitlar tushunilishi belgilangan, shuningdek Milliy xavfsizlikka tahdid sifatida siyosiy sohadagi, ijtimoiy sohadagi, iqtisodiy, harbiy sohadagi, ilmiy-texnika, texnologiya va axborot sohalaridagi, ekologik sohadagi ichki va tashqi tahdidlar sanab o’tilgan.

Yuqorida aytilganlarning mohiyati bizga jamiyat xavfsizligini ta’minlash subyektlarining amaliy faoliyatida jamoat xavfsizligiga tahdidlar tasniflash muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlashga asos bo’ladi[7].

Bizningcha bu

birinchidan, tahdidlarni batafsil o’rganish imkonini beradi,

ikkinchidan, uning mazmunini tushuninish imkonini beradi,



uchinchidan, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi chora-tadbirlarni (tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik va boshqalar) amalga oshirishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada Jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga ta'sir etuvchi tahdid va xavflarning siyosiy tahlillarini o'rganish va tadqiq etishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan. Ushbu metodologiya asosida mavzuga oid ma'lumotlar chuqur tahlil qilinib, ularning mamlakat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va adolat tamoyillarini shakllantirishdagi o'rni oydinlashtirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Avvalo, xavfsizlikka tahdid tushunchasiga aniqlik kiritish lozim.

V.V.Pyatiletovning fikricha, “tahdid” toifasining nazariy va amaliy ahamiyatiga qaramay, na mahalliy, na xorijiy ilmiy adabiyotlarda bu tushunchaga yagona yondashuv ishlab chiqilmagan[8].

V.L.Manilovning fikricha, tahdid - bu hayotiy manfaatlar va xavfsizlikka bevosita zarar yetkazuvchi xavf hisoblanadi[9].

V.I.Yarochkin va Y.V.Buzanovalar «tahdid» tushunchasi «xavf» tushunchasi bilan bog'liqligini ta'kidlab, tahdid imkoniyatlarning haqiqatga o'tish bosqichidagi ba'zi subyektlarning boshqalarga zarar yetkazishga tayyorligini bildirgan niyat yoki namoyish hisoblanadi deya ta'rif keltirilgan[10].

Y.V.Volkov esa tor ma'noda ta'rif bergan bo'lib, u tahdidni “xavfning eng aniq va bevosita shaklini vujudga keltiruvchi shartlar va omillar majmui” deb hisoblaydi[11].

Biz yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda quyidagicha ta'rif keltirishni joiz hisoblaymiz, “jamoat xavfsizligiga taxdid” – bu jamiyatning xayotiy muxim manfaatlariga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday voqea, xodisa, jarayon, shart-sharoitlar va boshqa holatlarning majmui.

A.M.Voronovning fikricha, jamoat xavfsizligiga tahdidlarning paydo bo'lishi, birinchidan, aholining turli guruhlari o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarning mavjudligi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashni kafolatlovchi ijtimoiy va davlat-huquqiy institutlar faoliyati samaradorligi bilan bog'liq, uchinchidan, o'rnatilgan yoki paydo bo'lgan huquqiy vositalar bilan himoya qilinishi lozim bo'lgan ularga ijobiy yoki salbiy xususiyat berishga qodir bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning tuzilishi bilan bog'liq[12].

V.N.Konin, jamiyat xavfsizligiga eng muhim tahdid sifatida quyidagilar keltirib o'tgan: jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishiga olib keladigan iqtisodiy beqarorlik; millatlararo va diniy nizolar; jinoyatchilikning, shu jumladan uyushgan jinoyatchilikning o'sishi, zo'rvonlik va shafqatsizlikning kuchayishi; davlat organlaridagi korrupsiya; xulq-atvor, axloq va axloq normalariga, jamiyatning befarqligining kuchayganligi; siyosiy ekstremizm va terrorizm; aholining davlat va munitsipal hokimiyat organlariga ishonchining yo'qligi;

davlatning qonunga xilof harakatlardan himoya qila olmasligiga ishonish;
huquqni muhofaza qilish organlarining tarqoqligi tufayli ularning samarasizligi;
huquqiy, moliyaviy, ijtimoiy va resurslar bilan ta'minlash muammolarining mavjudligi;
ishlab chiqarish vositalari, texnologik jihozlar, transport vositalarining amortizatsiyasi;
SSSR davrida ishlab chiqarilgan, tizimlar holatini nazorat qilish darajasining pasayishi,
xavfsizlik, rangli metallarning ommaviy o'g'irlanishi (elektr uzatish liniyalari, aloqa,
murakkab texnologik uskunalarni demontaj qilish), sabab bo'ladi;

baxtsiz hodisalar, falokatlar, ekologik ofatlar, yo'l transport xodisalarining o'sishi;
giyohvandlikning o'sishi va boshqalar[13].

R.A.Juravlev jamiyat xavfsizligiga quyidagi tahdidlarni belgilaydi:

terrorizm;

ekstremizmning har xil turlari;

ekologik falokat tahdidi;

texnogen va tabiiy ofatlar xavfi;

shuningdek, giyohvandlik, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, uyushgan va
transmilliy jinoyat, noqonuniy migratsiya, korrupsiya va boshqalar[14].

Shuni ta'kidlash joizki, favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash
sohasidagi davlat hokimiyati organlari faoliyatining umumiy nazariy masalalari A.B.Agapov,
A.V.Basov, D.N.Bahrax, A.V.Gryaznov, V.B.Rushaylo, S.D.Xazanov va boshqalarning
ishlarida o'rganilgan.

Biroq, jamiyat xavfsizligiga tahdidlarning xususiyatlari bilan bog'liq masalalar maxsus
o'rganilmagan. O'rganilgan ilmiy tadqiqot ishlarda bu masalalar keng va kompleks
yondashuvsiz qisman yohud ma'muriy-huquqiy masalalar doirasida o'rganib chiqilgan, bu
esa ushbu masalani kengroq ilmiy tahlil qilishni taqazo qiladi.

Jamoat xavfsizligiga tahdidlar juda xilma-xil bo'lib, jamiyatning deyarli barcha
sohalarida yuzaga keladi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, huquq fanidagi bahsli masalalardan
biri bu jamoat xavfsizligiga tahdidlarning to'liq ro'yxatini shakllantirishdir[15].

Ushbu masala bo'yicha fikr yuritar ekanmiz avvalo bunday tahdidlar ro'yxatini yaratish
mumkinmi degan savol paydo bo'ladi.

D.N.Bahrax, S.D.Xazanov favqulodda holat joriy etish uchun tahdidlar ro'yxatini
shakllantirishda shu savolni o'rta tashlashganini alohida ta'kidlash lozim[16].

Shuningdek, xalqaro amaliyotda jamoat xavfsizligini ta'minlashga tahdid soladigan
hodisalar ro'yxatiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Olimlar va amaliyotchilar
doimiy ravishda ushbu tahdidlar ro'yxatini ishlab chiqish ustida bahs olib borishmoqda.

Olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari jamoat xavfsizligi sohasidagi huquqni muhofaza
qilish faoliyati va amaldagi qonunchilik tahlili jamoat xavfsizligiga tahdidlarning quyidagi
guruhlarini aniqlashga imkon beradi.

Natijalar va muhokamalar.

Birinchi, siyosiy sohadagi jamiyat xavfsizligiga tahdidlar:

davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha
davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi kamchiliklar;



hukumat amaldorlari, xususan, huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida korrupsiya darajasining oshishi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini qonunga xilof ravishda cheklash bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini samarali ta‘minlay olmaganligi;

jamoat xavfsizligiga ta‘sir qiluvchi xavf-hataralarga tezkorlik bilan javob qaytara olmasligi;

jamoat tashkilotlarining (shu jumladan diniy tashkilotlarning) noqonuniy faoliyati va boshqalar.

Ikkinchidan, iqtisodiy sohada jamiyat xavfsizligiga tahdidlar: iqtisodiy sohada davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish tizimining zaiflashishi;

muvozanatsiz iqtisodiy siyosat va buning oqibatida aholining ijtimoiy turmush darajasining pasayishi;

iqtisodiy sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning beqarorligi, buning natijasida iqtisodiyotni kriminallashtirish ko‘lamining oshishiga olib kelishi;

sanoatning yetakchi tarmoqlari, agrosanoat majmuasi, aholi hayotini ta‘minlash tizimlarida asosiy ishlab chiqarish fondlarining og‘ir ahvoli sababli aholi hisobidan ushbu obyektlarni saqlash xarajatlarining oshishi;

aholini eng zarur tovarlar bilan ta‘minlash, uning sifati ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida monopoliyaga qarshi siyosatning samarasizligi va boshqalar.

Uchinchidan, ijtimoiy sohada jamoat xavfsizligiga tahdidlar: hayotning barcha sohalarida shaxsning qonuniy huquq va manfaatlarining buzilishi, inson huquq va erkinliklarini ishonchli va samarali amalga oshirilishi va himoya qilinishini ta‘minlashda davlatning nochorligi; sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligining pastligi; giyohvandlik, alkogolizm, «ijtimoiy kasalliklar»ning keng tarqalishi; kam ta‘minlanganlar uchun sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarining qisqartirilishi; jamiyatning axloqiy va ma‘naviy tanazzulining ko‘rinishlari; bolalar va o‘smirlarning qarovsizligi, uysizlik, tilamchilik, ekstremizm, terrorizm, separatizm ko‘rinishlarining ko‘payishi va boshqalar.

To‘rtinchidan, texnogen sohada jamiyat xavfsizligiga tahdidlar: ko‘p sonli texnogen favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi, texnologik jarayon davomida ko‘p miqdorda eskirgan va nosoz uskunalardan foydalanish, ishlab chiqarish uskunalarini o‘z vaqtida ta‘mirlamaslik va modernizatsiya qilmaslik, ishlab chiqarish jarayonida texnologik standartlar va meyorlarga rioya qilmaslik;

texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi, aholining o‘limi va shikastlanishi natijasida xavfli yuklarni saqlash va tashish qoidalarini buzish, shuningdek, bunday vaziyat oqibatlarini bartaraf etish uchun katta miqdordagi moliyaviy mablag‘lardan foydalanish;

ishlab chiqarish va turar-joy binolarini qurishda loyiha hujjatlarini va qo‘yilgan qurilish standarti talablarini buzish va boshqalar.



Beshinchidan, ekologik (atrof-muhit) sohasidagi jamiyat xavfsizligiga tahdidlar: O‘zbekiston Respublikasi hududida sezilarli antropogen buzilish va texnogen tirbandlik, texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlar xavfining oshishi;

Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq ekologik halokatning salbiy oqibatlari; tabiiy xom ashyodan noratsional foydalanish; suv havzalarining ekologik holatining yomonlashishi, transchegaraviy ifloslanish muammosining kuchayishi va suv sifatining pasayishi;

texnogen holatning kuchayishi suv omborlari kaskadining gidrotexnik inshootlari; Rossiya Federatsiyasiga ekologik jihatdan xavfli texnologiyalar, moddalar, materiallar va transgen o‘simliklar, odamlar, hayvonlar, o‘simliklar va organizmlar uchun xavfli patogenlarni nazoratsiz olib kirilishi, genetik modifikatsiyalangan o‘simliklar, organizmlar, moddalar va olingan mahsulotlardan asossiz foydalanish;

texnogen, shu jumladan yadroviy va biologik terrorizm xavfi; zaharli va ekologik xavfli chiqindilarni utilizatsiya qilish bo‘yicha komplekslarning eskirganligi va boshqalar.

Biz tahlillarimizdan kelib chiqqan holda, jamiyat xavfsizligiga tahdidlarni quyidagicha tasniflashni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, jamoat xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlar va xavf-hatarlarni tasniflash, guruhlariga ajratish kelgusida ularni oldini olish, ularga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga tahdid tushunchasiga ta’rif ishlab chiqishda quyidagicha yondashtik, “jamoat xavfsizligiga taxdid” – bu jamiyatning xayotiy muxim manfaatlariga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan har qanday voqea, xodisa, jarayon, shart-sharoitlar va boshqa holatlarning majmui degan xulosaga kelishimiz mumkin.

□ Fikrimizcha, Jamiyat xavfsizligi va jamoat xavfsizligiga tahdilarni tasniflashda ilmiy tadqiqot ishlari, jamoat xavfsizligi sohasidagi huquqni muhofaza qilish faoliyati va amaldagi qonunchilik hujjatlarini tahlili tasniflash maqsadga muvoffiqligini keltirib turibdi.

□ Shu sababli, yuqoridagi olimlar, tadqiqotchilar, yuridik adabiyotlar va amaldagi qonunchilik tahlili O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligiga nisbatan tahdid va xavf-hatarlarni aniqlash va baholash uchun yagona konseptual asosni yaratish va takomillashtirish vazifasini qo‘yishni taklif etamiz.

□ Mazkur vazifani yechimi sifatida hozirgi zamonda yuzaga kelayotgan tahdidlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasining yangi tahririni qabul qilishni taklif etamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Халқ сўзи 2017-йил 8-февраль. № 28 (6722)-сон.



2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли., // Янги Ўзбекистон газетаси. 2022-йил 1-февраль. №-544. – Б. 1-3.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги фармони. №-158-сон. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519158
4. Ҳайдаров А.У., Янги Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги ислоҳатларнинг таҳлили // Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Жамоат хавфсизлиги илмий амалий журнали № Махсус сон., – Тошкент., 2023 йил, – Б.131-134. (Мустақилликнинг 32 йиллиги).
5. Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисидаги Қонуни // <http://www.lex.uz/> // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси (мурожаат санаси 21.02.2022 йил);
6. “Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда) // <http://www.lex.uz/> // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси (мурожаат санаси 21.02.2022 йил).
7. Басова Й.Й., К вопросу о системе общественной безопасности // Сборник материалов научнопрактической конференции «Проблемы обеспечения законности, правопорядка и общественной безопасности в современных условиях. Симферопол: АРИАЛ, 2016. С. 224-230.
8. Пятилетов В.В., «Безопасность», «угроза безопасности», «чрезвычайная ситуация»: некоторые проблемы соотношения понятий // Вестник Самарского государственного аэрокосмического университета. 2009. № 1. С. 203.
9. Манилов В.Л., Угрозы национальной безопасности России // Военная мисл. 1996. № 1.
10. Ярочкин В.И., БузановаЙ.В., Теория безопасности. М., 2005. С. 30.
11. Волков Й.В., Геополитика и ее влияние на обеспечение безопасности в современном мире. Дис. д-ра полит. наук. М., 2001. С. 128.
12. Воронов А.М., Система обеспечения общественной безопасности: проблемы оптимизации // [https:// cyberleninka.ru/](https://cyberleninka.ru/) (мурожаат санаси 21.02.2022 йил).
13. Конин В.Н., Общественная безопасность как социально-правовое явление // Административное право и процесс. 2012. № 4. С. 43.
14. Журавлев,Р.А., Понятие и содержание общественной безопасности как приоритета национальной безопасности // Российский следовател. 2012. № 9. С. 46.
15. Басова Й.Й., К вопросу о системе общественной безопасности // Успехи современной науки и образованияЙ. 2017. №3. Том 5. С. 145-150.
16. Бахрах Д.Н., Хазанов С.Д. Правовой режим чрезвычайного положенийЙ. Екатеринбург, 1992. Б- 33.